

**O'ZBEKISTONDA FARMATSEVTIKA SANOATINING
RIVOJLANISHI VA IMPORT ULUSHINI KAMAYTIRISH OMILLARI**

Намозов Дилшодбек Фанижонович,

Божхона қўмитаси Бухоро вилояти

божхона бошқармаси ходими

dilshodbeknamozov@gmail.com

Shoimqulov Raxmonqul Ulug'murotovich

Bojxona qo'mitasining Tashqi iqtisodiy faoliyat

ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi,

Toshkent shahar, O'zbekiston

raxmonqul_shoimqulov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston farmatsevtika sanoatining hozirgi rivojlanish holati, import mahsulotlarining ulushi hamda ichki ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillar tahlil qilingan. 2024-yil statistik ma'lumotlari asosida farmatsevtika mahsulotlari importi va eksporti dinamikasi, bozor hajmi va tarkibi yoritilgan. Shuningdek, importga qaramlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar — texnologik va infratuzilma imkoniyatlari, malakali kadrlar yetishmovchiligi, moliyaviy-investitsion resurslar, sifat va standartlashtirish masalalari hamda bojxona va soliq siyosati o'rganilgan. Maqolada sohani rivojlantirish, import ulushini kamaytirish va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan istiqbolli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. O'zbekiston, farmatsevtika sanoati, import ulushi, eksport, raqobatbardoshlik, texnologiyalar, kadrlar salohiyati, investitsiyalar, sifat nazorati, bojxona va soliq siyosati.

Факторы, способствующие развитию фармацевтической промышленности Узбекистана и снижению доли импорта

Намозов Дилишодбек Ганижонович,

*Таможенный комитет сотрудник таможенного
управления Бухарской области*

[*dilshodbeknamozov@gmail.com*](mailto:dilshodbeknamozov@gmail.com)

Шоимкулов Рахмонкул Улугмуратович

*Ведущий научный сотрудник Научного центра
внешнеэкономической деятельности*

Таможенного комитета, Ташкент, Узбекистан

[*raxmonqul_shoimqulov@mail.ru*](mailto:raxmonqul_shoimqulov@mail.ru)

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние фармацевтической отрасли Узбекистана, доля импортной продукции и устойчивость отечественного производства. На основе статистических данных за 2024 год рассматривается динамика импорта и экспорта фармацевтической продукции, емкость и структура рынка. Изучаются импорт, производство, влияющее на импортозависимость - технологии и инфраструктура, нехватка квалифицированных кадров, качество-инвестиционные ресурсы, вопросы качества и стандартов, а также таможенная и налоговая политика. В статье разрабатываются предложения по развитию отрасли, переработке доли импорта и повышению устойчивости национального производства.

Ключевые слова. Узбекистан, фармацевтическая промышленность, доля импорта, экспорт, устойчивость импорта, технологии, кадры, инвестиции, контроль качества, таможенная и налоговая политика.

Kirish. Farmatsevtika sanoati — mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Sifatli dori vositalarining mavjudligi aholining sogʻligʻini taʼminlashda, tibbiyot xizmatlarini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, har bir davlat uchun farmatsevtika sanoatining mustaqil va barqaror rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlik va sogʻliqni

saqlash tizimining samaradorligi uchun zarurdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda farmatsevtika sanoati jadal sur'atlarda rivojlanib, milliy iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega sohalari qatorida mustahkam o'rin egallamoqda. So'ngi yillarda sohani kompleks rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda farmatsevtika bozorining jadal o'sishi ichki ishlab chiqaruvchilardan yuqori hajm va sifat talabini yuzaga keltirmoqda. Biroq, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlari hali to'liq ichki ehtiyojni qoplash darajasiga yetmaganligi sababli, dorilar bozorida import mahsulotlari salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Ushbu tezisda farmatsevtika sanoatining importga qaramligi darajasi, ichki ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi va ularni rivojlantirish bo'yicha kompleks tahlil keltiriladi.

Farmatsevtika sanoatining rivojlanish holati va import mahsulotlarining ulushi.

O'zbekiston farmatsevtika sanoati so'nggi o'n yillikda sezilarli rivojlanishga erishdi, biroq yuqori texnologiyali dori vositalari ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika mahsulotlari importi 1,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi (2023-yilda – 1,3 mlrd dollar). Hajm jihatidan esa 38,7 ming tonna dori vositalari import qilindi (2023-yilda – 33,1 ming tonna). Importning asosiy qismini Birlashgan Arab Amirliklari (325 mln dollar), Gruzziya (119,9 mln dollar) hamda Rossiya Federatsiyasi (113,9 mln dollar)dan keltirilgan mahsulotlar tashkil etdi. Natijada, 2023-yilga nisbatan import hajmi qiymat ko'rinishida 0,2 mlrd AQSH dollariga ortdi. (Bojxona qo'mitasining sitatistika ma'lumotlari)

Eksport ko'rsatkichlari esa pasayish tendensiyasini namoyon qildi. Jumladan, 2024-yilda eksport hajmi 9,7 mln AQSH dollarini tashkil etib (2023-yilda – 10,9 mln dollar), qiymat jihatidan 1,2 mln dollarga kamaydi. Eksport hajmi 4 ming tonna miqdorini tashkil etdi (2023-yilda ham – 4 ming tonna).

Eksportning asosiy yo'nalishlari sifatida Qirg'iziston (5,5 mln dollar), Tojikiston (945,4 ming dollar) va Qozog'iston (917 ming dollar) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi (*Bojxona qo'mitasining statistika ma'lumotlari*).

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston dori vositalari bozorining hajmi 26 trln. so'm yoki 2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Shuningdek, Soliq organlari tomonidan 2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston aholisi dori vositalarini sotib olish uchun 19,7 trln. so'mdan ko'proq pul sarflaganligi, shundan, 15,7 trln. so'mi (80 %) import va 4 trln. so'mi (20 %) ichki ishlab chiqarilgan farmatsevtika mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelganligi ko'rsatib o'tilgan. (*Soliq qo'mitasi axborot xizmati*)

Hozirgi kunda dori vositalari oziq-ovqat mahsulotlaridan keyingi eng ko'p pul sarflanadigan mahsulot turi hisoblanadi. Davlat statistika qo'mitasi va sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, farmatsevtika mahsulotlari importi yalpi farmatsevtika bozori hajmining taxminan 70-80% ni tashkil etadi. Asosan, dori vositalarining xom ashyo va tayyor mahsulotlari Xitoy, Hindiston, Rossiya va Yevropa davlatlaridan olib kiriladi.

Ichki ishlab chiqaruvchilar hozirda asosan o'rta sifat toifasidagi dori vositalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shu bois, yuqori texnologiyali mahsulotlar segmentida hali to'liq raqobatbardoshlik ta'minlanmagan. Bu esa milliy sog'liqni saqlash tizimi barqarorligini mustahkamlash uchun import narxlari va valyuta kursidagi o'zgarishlarga bog'liqlikni kamaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Import ulushining shakllanish omillari va uni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

O'zbekiston farmatsevtika sanoatida import ulushi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Texnologik va infratuzilma omillari. Zamonaviy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalar, maxsus uskunalar va rivojlangan laboratoriya bazasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ushbu infratuzilma bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda, ammo ichki ishlab chiqaruvchilarning xalqaro talab darajasidagi raqobatbardoshligini ta'minlash

uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarur.

Kadrlar salohiyati. Farmatsevtika sohasi yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yilning dastlabki yarmida 300 nafardan ortiq farmatsevt mutaxassislar Turkiya, Belarus va Rossiyada malaka oshirishdi. Tehron tibbiyot fanlari universiteti bilan hamkorlikda PhD darajasidagi kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Janubiy Koreyaning Yonse universiteti bilan biofarmatsevtika va biotexnologiya bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ishlab chiqildi hamda 45 nafar talabani grant asosida Koreyada o'qitish bo'yicha kelishuvga erishildi. Mazkur tashabbuslar kelgusida kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. *(Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi)*

Moliyaviy va investitsiya omillari. Korxonalar tomonidan yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishda moliyaviy imkoniyatlar muhim o'rin tutadi. 2017–2024-yillarda soha bo'yicha umumiy investitsiyalar hajmi 3,6 barobarga oshib, 2024-yilda 185 mln AQSH dollarini tashkil etdi (asosan xorijiy investitsiyalar hisobiga). Kelgusida zamonaviy texnologiyalarni keng jalb qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va sifat nazorati tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. *(<https://review.uz>)*

Sifat va standartlashtirish masalalari. Milliy farmatsevtika mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardosh qilish uchun sifat standartlariga rioya etish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda 2024-yilda Zarur amaliyotlar (GxP) markazi faoliyati qayta ko'rib chiqilib, ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi joriy etildi. *(Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi)*

Bundan tashqari, 3785 ta korxonada inspeksiya o'tkazilib, GMP sertifikatiga ega korxonalar soni 54 taga, GDP sertifikatiga ega distribyutorlar soni 318 taga, GPP sertifikatiga ega dorixonalar soni esa 2538 taga yetdi. *(Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi)*

Bojxona va soliq siyosati. So'nggi yillarda farmatsevtika bozorini tartibga solishda bir qator yangiliklar joriy etildi. Xususan, 2024-yil 1-apreldan dori vositalariga qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foiz etib belgilandi. Natijada, dori

vositalari tannarxi yil davomida oʻrtacha 25 foizga oshdi. Shuningdek, 2025-yildan boshlab ayrim tibbiyot buyumlari uchun bojxona imtiyozlari bekor qilindi va TIF TN kodi 3004 pozitsiyadagi mahsulotlarga 2 foizlik boj joriy qilindi. Ushbu oʻzgarishlar bosqichma-bosqich ichki ishlab chiqaruvchilar uchun qoʻshimcha ragʻbat boʻlib xizmat qilishi kutilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi yoʻnalishlarni taklif etish mumkin:

- Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish boʻyicha davlat darajasida kompleks strategik dastur ishlab chiqish;
- Zamonaviy texnologiyalarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishga joriy etishni qoʻllab-quvvatlash uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish;
- Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xalqaro hamkorlik dasturlarini rivojlantirish va tajriba almashishni yoʻlga qoʻyish;
- Sifat nazorati tizimini kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga mos sertifikatlashtirish jarayonlarini bosqichma-bosqich toʻliq joriy etish;
- Bojxona va soliq mexanizmlarini milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini ragʻbatlantirishga xizmat qiladigan tarzda takomillashtirish.

Oʻzbekiston farmatsevtika sanoatida import ulushi sezilarli boʻlib, bu ichki ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat sharoitlarini murakkablashtirmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda mavjud ishlab chiqarish salohiyati va istiqbolli imkoniyatlar kompleks islohotlar amalga oshirilishi orqali yanada rivojlantirilishi mumkin.

Farmatsevtika sanoatini modernizatsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, sifat nazorati mexanizmlarini mustahkamlash hamda davlat siyosatini izchil amalga oshirish orqali Oʻzbekiston farmatsevtika bozorida barqaror va raqobatbardosh oʻrinni egallash imkoniyatiga ega.

Manbalar:

Bojxona qoʻmitasining statistika maʼlumotlari,

Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish agentligi axborot xizmati,

Soliq qoʻmitasi axborot xizmati,

<https://review.uz> sayti